



# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **“BULG‘ATIL MUSHTAQ” ASARINING PARIJ VA KASTAMONU NUSXALARI QIYOSIY TAHLILI**

**G‘aniyeva Barchinoy Mahmud qizi**

Namangan davlat universiteti, mustaqil izlanuvchisi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqola Jamoliddin at-Turkiy tomonidan XIV asrda yaratilgan “Kitabu Bulg‘atil mushtaq fi lug‘at at-turk val qifchaq” qo‘lyozmasining Parij va Kastamonu nusxalarini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda har ikki nusxaning sahifa tuzilishi, yozuv xususiyatlari, bob va fasllar tarkibi hamda leksik materiallari tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil jarayonida qo‘lyozmaning Parij nusxasida mavjud bo‘lmagan ayrim bob va fasllar Kastamonu nusxasida saqlanib qolganligi, shuningdek Parij nusxasida uchraydigan ba’zi qismlar esa Kastamonu nusxasida mavjud emasligi aniqlangan. Har ikki nusxadagi materiallarni birgalikda tahlil qilish natijasida qo‘lyozmaning umumiy tarkibi aniqroq tiklanib, asarda jami 8 ta yirik bob va 62 ta fasl mavjudligi belgilandi. Mazkur natijalar qo‘lyozmaning struktur tuzilishini yaxlit holda tasavvur qilish imkonini beradi hamda asarning leksik tarkibini o‘rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot turkiy tillarning tarixiy leksikologiyasi va qipchoq turkchasi materiallarini o‘rganish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Mamluk-Qipchoq davlati, Bulg‘atil mushtaq, Parij nusxasi, Kastamonu nusxasi, qipchoq tili, qo‘lyozma, qiyosiy tahlil, leksik birliklar, struktur tuzilish, tarixiy leksikologiya.

## **СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ПАРИЖСКОЙ И КАСТАМОНСКОЙ РУКОПИСЕЙ ПРОИЗВЕДЕНИЯ “БУЛГАТ АЛЬ-МУШТАК”**

**Ганиева Барчиной Махмуд кизи**

Наманганский государственный университет, независимый исследователь

### **Аннотация**

Данная статья посвящена сравнительному исследованию парижской и кастамонской рукописных версий произведения Джамал ад-Дина ат-Турки XIV века “Kitabu Bulg‘atil mushtaq fi lug‘at at-turk val qifchaq”. В ходе исследования анализируются структура страниц, особенности письма, состав глав и разделов, а также лексический материал обеих рукописей. В процессе сравнительного анализа установлено, что некоторые главы и разделы, отсутствующие в парижской рукописи, сохранились в кастамонской версии, тогда как отдельные части, представленные в парижской рукописи, отсутствуют в кастамонской. Совместный анализ материалов обеих рукописей позволил более точно реконструировать общую структуру произведения и установить, что оно состоит из 8 крупных глав и 62 разделов. Полученные результаты дают возможность представить структурную организацию рукописи в более целостном виде и служат важным источником для изучения лексического состава произведения. Данное исследование имеет важное научное значение для изучения исторической лексикологии тюркских языков и материалов кипчакского тюркского языка.

**Ключевые слова:** Мамлюкско-кыпчакское государство, «Бульгат ал-муштак», Парижский список, Кастамонуский список, кыпчакский язык, рукопись, сравнительный анализ, лексические единицы, структурное строение, историческая лексикология.

## **COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PARIS AND KASTAMONU COPIES THE WORK “BULGHAT AL-MUSHTAQ”**

**Gʻaniyeva Barchinoy Mahmud qizi**  
Namangan State University, Independent Researcher

**Abstract**

This article is devoted to a comparative study of the Paris and Kastamonu manuscript copies of the fourteenth-century work “Kitabu Bulgʻatil mushtaq fi lugʻat at-turk val qifchaq” written by Jamal al-Din al-Turki. The research analyzes the page structure, writing characteristics, the composition of chapters and sections, as well as the lexical material of both manuscripts. The comparative analysis revealed that some chapters and sections absent in the Paris manuscript have been preserved in the Kastamonu copy, while certain parts found in the Paris manuscript are missing in the Kastamonu version. By examining the materials of both manuscripts together, it was possible to reconstruct the overall structure of the work more accurately and determine that the manuscript consists of eight major chapters and sixty-two sections. These findings provide a more comprehensive understanding of the structural organization of the manuscript and serve as an important source for studying its lexical content. The research is of significant scholarly value for the study of the historical lexicology of Turkic languages and the linguistic material of the Kipchak Turkic language.

**Keywords:** Mamluk-Kipchak state, Bulghat al-Mushtaq, Paris manuscript, Kastamonu manuscript, Kipchak language, manuscript, comparative analysis, lexical units, structural composition, historical lexicology.

**Mamluklar** Misrda hukmronlik qilgan Ayyubiylar sulolasining (1171–1250) soʻnggi hukmdorlari qoʻshinini tashkil etgan, nasl-nasabi turkiy va Kavkaz xalqlariga, xususan, gruzin, cherkas va boshqalarga mansub qul-jangchilar boʻlgan. Ularni yoshligidan asir qilib olib ketishgan va maxsus harbiy ilmga oʻrgatishgan. Ular nihoyatda qahrli va jasur qilib tarbiyalangan. Eng jasurlari oddiy mamluklikdan sarkarda, hatto podsho darajasigacha koʻtarilgan. Ulardan ayyubiylar qoʻshinining gvardiyasi tashkil etilgan. Ayyubiylar davlati qulagandan soʻng mamluklar 1250-yildan Misrda (1517-yilgacha) va Suriyada (1516-yilgacha) davlatni mustaqil boshqarganlar (OʻzME, 2000). Bu davlat harbiy qoʻshini tarkibi qul savdosi tufayli, asosan, qipchoqlar, oʻgʻuzlar, cherkeslar, moʻgʻullar va boshqa turli millat vakillaridan iborat boʻlgan. Ulardan koʻpchiligi qipchoqlar boʻlganligi bois bu yerda asosiy til turkiy til boʻlgan.

Mamluk-Qipchoq davlati davrida yozilgan lugʻatlar va grammatik asarlar bu davlatning ilmiy, diniy, adabiy, filologik va harbiy hayotida mamluk-qipchoq masalalarini qamrab olgan. Ushbu lugʻatlar va grammatika kitoblari arablarga turkiy tilni oʻrgatish uchun yozilgan. Garchi asarlardagi materiallarning bir qismi adabiy tilga asoslangan boʻlsa-da, ularga asosan qipchoq tilining dialektik xususiyatlarini aks ettiruvchi materiallar ham kiritilgan (Waldman, Mason, 2006: 136-b.). Arablarga turkiy tilni oʻrgatish uchun yozilgan asarlar orasida Jamoliddin at-Turkiy tomonidan yozilgan XIV asrga oid **“Kitabu bulgʻatil mushtaq fi lugʻat at-turk val qifchaq”** qoʻlyozmasini tadqiq etish oʻrinlidir. **“Bulgʻatil mushtaq”** qoʻlyozmasi arablarga turkiy tilni oʻrgatishda oʻz davrida juda zaruriy manba sifatida qoʻllanilgan boʻlsa, hozirgi zamon turkologlari uchun ham koʻplab ilmiy tadqiqotlarning obyektini boʻlib xizmat qilmoqda. Asarning avvaldan ilm ahliga maʼlum boʻlgan Parij nusxasi hamda uning yangi topilgan Kastamonu nusxasi mavjud.

**Adabiyotlar tahlili**

**“Bulgʻatil mushtaq”** obidasining Parij nusxasini ilk bor polyak olimi A. Zayonchkovski (1954) tadqiq qilgan. Oʻzbek olimasi A. Fayzullayeva (1969), qozoq olimasi G. Gaynutdinova (2005), turk olimasi Al-Turk Gulhan (2012) kabi olimlarning ushbu qoʻlyozma ustida amalga oshirgan ishlari eʼtiborga molikdir. Asarning ikkinchi nusxasi esa turk olimlari Musa Salan va Savaş Karagözoğlu tomonidan batafsil tadqiq etilib, ikkala nusxa oʻrtasidagi farqlar aniqlangan.

**Tadqiqot metodologiyasi**

Mazkur tadqiqotda qiyosiy, tavsifiy va struktur tahlil metodlaridan foydalanilgan. Qiyosiy metod yordamida **“Bulg‘atil mushtaq”** qo‘lyozmasining Parij va Kastamonu nusxalari o‘zaro solishtirilib, ularning bob va fasllar tarkibi, sahifa tuzilishi hamda leksik birliklari o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Struktur metod orqali asarning bob va fasllardan tashkil topgan ichki tuzilishi o‘rganilib, har ikki nusxadagi boblarni birlashtirish orqali qo‘lyozmaning umumiy strukturasi aniqlashtirildi.

#### **Tahlil va natijalar**

**“Bulg‘atil mushtaq”** qo‘lyozmasining Parij nusxasi ustida dastlabki tadqiqotlarni amalga oshirgan polyak olimi Zayonchkovskiy (1954; 1958) uni ikki yirik qismga bo‘lib o‘rgangan:

1. **Birinchi qism – Ismlar;**
2. **Ikkinchi qism – Fe’llar.**

Ushbu qismlar o‘z navbatida kichik boblar va fasllarga bo‘lingan. Bu haqda qo‘lyozmaning kirish qismida ham muallif ta’kidlab o‘tadi: *“Qolaversa, men buni boblar va bo‘limlarga ajratdim. Fasllar bilan tartibladim. Unga mos keluvchi so‘zlarni joylashtirdim”* (8b2).

Mazkur nusxaning tarkibiy qismlariga kelsak, unda muallif “bob” sifatida bergan 4 ta yirik bob, ya’ni **“Birinchi bob (Ba:b ul-Avval)”**, **“Ikkinchi bob (Ba:b us-Saniy)”**, **“Ravish bobi (Ba:b uz-Zarfi)”**, **“Fe’llar bobi (Ba:b ul-Af’a:l)”** kabilardan iborat bo‘lib, birinchi, ikkinchi va ravishlar boblarini **Ismlar bo‘limi** sifatida o‘rganish mumkin. Arab tilida va turkiy tillarda ham “ismlar” fe’ldan boshqa so‘z turkumlarining umumiy nomi bo‘lib (Dadaboyev, Xolmanova, 2015: 60-b.), bunday nomlash yuqoridagi boblarning tarkibiy qismlari uchun aynan mos atama bo‘la oladi. O‘z navbatida, yuqorida berilgan yirik boblar kichik boblarga va fasllarga ajratilgan bo‘lib, ayrim fasllardan tashqari barcha bob va fasllarning o‘z nomi bor. Biroq muallif birinchi va ikkinchi bobdan tashqari boshqa kichik boblarni sonlar bilan tartiblamagan, aksincha, har qaysi bobga o‘z tarkibiga mos ravishda nom qo‘ygan. Bu esa tasnif ishining aniq bo‘lishini ta’minlaydi.

Qo‘lyozmaning yana bir nusxasi Turkiyaning Kastamonu shahridan topilgan. Ushbu nusxa hech bir joyda ro‘yxatga olinmagan bo‘lib, Kastamonulik Mahmud Islomo‘g‘luning shaxsiy kolleksiyasida saqlanadi. Islomo‘g‘lu bu asarni Chankiridagi qadimiy buyumlar sotuvchisidan sotib olgan va Kastamonu shahrida istiqomat qiluvchi, arab yozuvidagi asarlarga qiziqishi bo‘lgan iste’fodagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Tuncay Sakallio‘g‘ludan ushbu asarni ko‘zdan kechirishini so‘raydi. Asarni ko‘rib chiqib, Sakallio‘g‘lu bu asar tarixiy qipchoq turkchasi lug‘ati, degan xulosaga keladi va ushbu sohada tahsil olgan akademiklar bilan bog‘lanadi. Doktor Iso Sari orqali turkiyshunoslar Musa Salan hamda Savaş Karagözoğlu Sakallio‘g‘lu bilan aloqaga chiqishgan va asar ustida ishlash istagini bildirganlar. Ular qo‘lyozmani sinchiklab o‘rganib chiqqach, bu kitob **“Bulg‘atil mushtaq”** qo‘lyozmasining boshqa nusxasi ekani ma’lum bo‘lgan. Asar Chankirida topilgan bo‘lsa-da, ushbu nusxa uchun “Kastamonu nusxasi” nomi qo‘llanadi, chunki u hozirda Kastamonu shahrida saqlanmoqda va kelgusida ushbu hududdagi rasmiy arxivga topshiriladi. Ushbu nusxa yuqorida nomlari tilga olingan Musa Salan va Savaş Karagözoğlu kabi olimlar tomonidan o‘rganilib, tadqiqotlar natijasida Parij nusxasida mavjud bo‘lib, Kastamonu nusxasida uchramaydigan so‘zlar hamda Kastamonu nusxasida berilib, Parij nusxasida mavjud bo‘lmagan so‘zlar aniqlangan (Karagözoğlu, Salan, 2021). Kastamonu nusxasi bizga ma’lum bo‘lishidan avval tadqiqotimiz davomida Parij nusxasida jami 8 ta sahifa yo‘qolganligi ma’lum bo‘lgan edi (G‘aniyeva, 2025). Ushbu yo‘qolgan sahifalardagi so‘zlarning ko‘pchiligi Kastamonu nusxasida mavjud bo‘lib, bu esa kelgusida asarni ancha to‘liq holda qayta tiklash imkonini beradi.

Kastamonu nusxasining muqovasi, muqaddimasi, birinchi va oxirgi sahifalari yetishmasligi sababli asarning nomi, muallifi, xattoti, yozilish va ko‘chirilish sanalari haqida ma’lumotlar mavjud emas. Asarning ayrim varaqlarida dog‘lar va o‘chib ketgan joylar mavjud. Ushbu nusxa Parij nusxasida oltinchi o‘rinda keltirilgan **“Ar-rosul”** – **yalavaç** so‘zi bilan

boshlanadi. Asar yetarli darajada yaxshi saqlanmaganligi sababli ayrim sahifalari xira va sahifa raqamlari mavjud bo‘lmagani bois undagi varaqlar ketma-ket tartibda joylashtirilmagan. Kastamonu nusxasi ham xuddi Parij nusxasi kabi nasx yozuvida bitilgan bo‘lib, undagi so‘zlarning deyarli barchasi diakritik belgiga ega, talaffuzi turlicha bo‘lgan so‘zlar ustiga harf yoki farqlovchi belgilar qo‘yilgan. Parij nusxasi esa qora siyohda arabcha va qizil siyohda yozilgan turkiy so‘zlardan iborat. Kastamonu nusxasidagi so‘zlarning barchasi qora siyoh bilan yozilgan, biroq ayrim turkiy so‘zlar ustida qizil rangli belgilar mavjud. Ushbu nusxa Parij nusxasidan farqli ravishda oddiy gorizontol satrlarda yozilgan. Har bir sahifa 15 satrdan iborat. Asarning har bir bo‘limida oldin arabcha so‘z, undan keyin esa uning turkcha muqobili berilgan. U sakkizta yirik bobdan iborat. Ushbu boblar ostida **fasl** deb ataladigan kichik bo‘limlar mavjud. Dastlabki varaqlar yetishmaganligi sababli birinchi bo‘limning sarlavhasi saqlanmagan. Qo‘lyozmaning ushbu nusxasi “kaf” harfi bilan boshlanuvchi fe’l bilan yakunlangan va ushbu bobning qolgan qismi berilmagan.

Parij qo‘lyozmasi aslida 89 varaq, ya’ni 178 betdan iborat bo‘lib, unda 7b sahifagacha ushbu asarga aloqasi bo‘lmay, unga keyinchalik qo‘shilgan she’riy parchalar keltirilgan. **“Bulg‘atil mushtaq”** asarining o‘zi esa 7b sahifadan boshlanib, 89a sahifagacha jami 81 varaq, 162 sahifani o‘z ichiga oladi. **Ismlar bo‘limi** (8-betdan 21-betgacha) 13 ikki tomonlama sahifadan iborat bo‘lib, jami 26 betni qamrab olgan. **“Fe’llar bob”** qismi esa (21a betdan 89a betgacha) 67 ikki tomonlama “a” va “b” sahifalarni egallagan bo‘lib, 135 betni (so‘nggi bir tomonlama sahifa bilan) tashkil qiladi. Qo‘lyozmadagi **Fe’llar bob** (“Ba’b ul-Af’al”) o‘z navbatida kichik boblarga va fasslarga bo‘lingan. Har bir kichik bob arab alifbosi tartibidagi arab harflari nomi bilan atalgan va shu harf bilan boshlanuvchi arabcha fe’llar hamda ularning qipchoqcha tarjimalari berilgan. Qo‘lyozmaning bu nusxasida har bir o‘rinda muallif va xattotning tartibga qat’iy amal qilgani ko‘zga tashlanadi, ya’ni deyarli har sahifada aniq miqdordagi so‘zlar berilganini ko‘rish mumkin. Asarning Parij nusxasidagi sahifalar o‘lchami 21×15,5 santimetrni tashkil qiladi. O‘ng tomonda arabcha so‘zlar qora siyohda, chap tomonda esa ularning qipchoq-turkiy tildagi tarjimasi qizil siyohda yozilgan. So‘zlar juftligi zig-zag shaklida yozilib, ikki zig-zag qator bir romb qatorni tashkil qilgan. Har sahifada 5 tadan romb qator mavjud bo‘lib, shunda har bir qatorda o‘rtacha 30 ta so‘z juftligi berilgan (sarlavha va izohlar berilgan sahifalar bundan mustasno). Har bir qatorda uchta so‘z juftligi berilgan bo‘lib, ular har sahifada 3 ta vertikal romb ustunni hosil qilgan. Har bir “a” sahifaning so‘ngida esa tartiblovchi so‘z chap tarafda berilgan va keyingi sahifa shu so‘z bilan boshlangan.

Kastamonu nusxasi asarning ancha to‘liq variantidir, ya’ni unda boblar soni hamda so‘zlar soni ko‘proq bo‘lib, Parij nusxasida mavjud bo‘lmagan yana 4 ta bobni ham o‘z ichiga olgan. Asarning bu nusxasi 1a sahifadan boshlanib, 72b da yakunlanadi va ushbu nusxa 72 varaq, jami 144 sahifadan iborat. Ushbu nusxaning har bir varag‘i 21×15 santimetr o‘lchamga ega. Parij nusxasidan farqli o‘laroq, bu nusxa romb shaklida emas, balki an’anaviy gorizontol matn ko‘rinishida yozilgan. Shuningdek, qora va qizil rangli siyohlarda emas, faqat qora siyohda (ayrim belgilar qizilda berilgan) yozilganligi uning asl nusxadan ko‘chirilgan nusxa bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Qo‘lyozmaning ikki nusxasida kuzatiladigan umumiy farqlarni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin:

<b>“Bulg‘atil mushtaq”</b>	<b>Parij nusxasi</b>	<b>Kastamonu nusxasi</b>
Umumiy sahifalar soni	89 varaq – 178 sahifa	72 varaq – 144 sahifa
Asarning kirish qismi, lug‘at va grammatik qoidalar joylashgan qismi	81 varaq – 162 sahifa	72 varaq – 144 sahifa
Yozuv turi	Nasx xati	Nasx xati
Rangli siyohdan foydalanish	Qizil siyohda – turkiy so‘zlar; qora siyohda – arabcha so‘zlar	Faqat qora siyohda yozilgan, ayrim belgilar uchun qizil siyoh qo‘llanilgan

Sahifalar tartiblanishi	Sahifa ostida poygir soʻz bilan tartiblangan	Sahifalarda tartiblovchi belgi mavjud emas
Sahifalardagi qatorlar soni	10 qator, 3 ustun	15 qator
Qatorlarning berilishi	Romb koʻrinishida yozilgan	Oddiy gorizontal matn shaklida berilgan
Asar nomi va muallifi berilgan sahifa	Mavjud	Mavjud emas
Yirik boblar soni	4 ta	8 ta
Fasl va kichik boblar soni	36 ta	57 ta
Jami turkiy soʻzlar soni	4735 ta	6433 ta

“**Bulgʻatil mushtaq**” qoʻlyozmasining ikkala nusxasida jami 8 ta yirik bob mavjud boʻlib, boshqa barcha bob va fasllar ularning tarkibiga kiradi. Kastamonu nusxasida uchraydigan ushbu boblardan faqat 4 tasi Parij nusxasida mavjud. Birinchi bobning sarlavhasi va undagi 5 ta soʻz Kastamonu nusxasida yoʻq va ularni Parij nusxasi orqali tiklash mumkin. Quyida har ikki nusxada mavjud boʻlgan bob va fasllar tartiblandi:

**I. Birinchi bob (Ba:b ul-Avval):** Alloh Taoloning ismlari va osmon, undagi boshqa narsalar nomlari.

**II. Ikkinchi bob (Ba:b us-Soniy).** Ushbu bob tarkibida quyidagi fasllar mavjud: yer va undagi boshqa narsalar, shaharga oid soʻzlar; fasl (aralash mazmundagi soʻzlar); fasl (aralash mazmundagi soʻzlar); fasl (hayot, oʻlim va boshqalarga oid soʻzlar); fasl (diniy atamalar); askar va uning qurollariga oid soʻzlar fasli; don va boshqalar boʻyicha fasl; hayvonlarga oid soʻzlar fasli; mevalar va rezavor mevalarga oid fasl; oziq-ovqat va masalliqqlarga oid soʻzlar fasli; ichimliklarga oid soʻzlar fasli; kiyim-kechak, yopinchiq va boshqalarga oid soʻzlar; fasl (pardoz buyumlari nomlari berilgan); idishlarga oid fasl; ulov jonivorlari nomlari fasli; ulovlarning egar-jabduqlariga oid fasl; urush qurollari va asbob-uskunalariga oid fasl; inson tana aʼzolariga oid fasl; inson vujudidan ajraladigan narsalar fasli; cholgʻu asboblari va raqsga oid soʻzlar; sifatlarga oid fasl; ranglarga oid fasl; qarindoshlarga oid fasl; fasl; kasalliklarga oid fasl; vahshiy hayvonlarga oid soʻzlar fasli; hasharotlarga oid soʻzlar fasli; qushlar nomlari fasli; sonlar fasli.

**III. Ravish bobi.** Ushbu bob quyidagi fasllarni oʻz ichiga oladi: makon ravishi; zamon ravishi; fasl (turli olmoshlarga oid soʻzlar berilgan); olmoshlarga oid fasl; fasl.

**IV. Feʼllar bobi.** Ushbu bob oʻz ichiga 27 ta arab alifbosi harflari nomi bilan atalgan kichik boblarni qamrab olgan. Bunda deyarli barcha harflarga oid soʻzlar berilgan boʻlib, “yo” harfi bobi mavjud emas.

**V. Boʻlishsizlik shakli.**

**VI. Soʻroq bobi.**

**VII. Masdar bobi.**

**VIII. Qasam bobi.** Ushbu bob tarkibida birgina fasl berilgan: fasl. Arabcha “kaʼna” feʼli haqida.

Yuqorida keltirilganidek, ikkala nusxadagi boblar umumlashtirilganda “**Bulgʻatil mushtaq**” asarida jami 8 ta yirik bob va 62 ta fasl yoki kichik bob mavjudligi aniqlandi. Asarning Parij nusxasida 4 ta yirik bob va 35 ta fasl hamda kichik boblar mavjud boʻlsa, Kastamonu nusxasida 8 ta yirik bob va 57 ta kichik bob hamda fasllar mavjudligi tadqiqotimiz davomida maʼlum boʻldi. “**Bulgʻatil mushtaq**” qoʻlyozmasining Kastamonu nusxasida kelgan soʻnggi toʻrtta bob Parij nusxasida mavjud emas. Tadqiqotimiz natijasida asarning Kastamonu nusxasida mavjud boʻlgan, biroq Parij nusxasida uchramaydigan 24 ta fasl yoki kichik boblar aniqlandi. Parij nusxasida ushbu fasllarning na sarlavhasi, na tarkibidagi soʻzlar uchraydi. Xususan, “**Mevalar va rezavor mevalarga oid fasl**”, “**Kiyim-kechak, yopinchiq va boshqalarga oid soʻzlar**”, pardoz buyumlariga oid soʻzlar berilgan fasl, “**Idishlarga oid soʻzlar fasli**”, “**Ulov jonivorlari nomlari fasli**”, “**Ulovlarning egar-jabduqlariga oid fasl**”, “**Urush qurollari va asbob-uskunalariga oid soʻzlar fasli**”, “**Inson tana aʼzolariga oid fasl**”, “**Inson vujudidan ajraladigan narsalarga oid**

soʻzlar fasli”, “Cholgʻu asboblari va raqsga oid soʻzlar fasli”, “Sifatlarga oid soʻzlar fasli”, “Ranglarga oid soʻzlar fasli” kabi fasllar Parij nusxasida mavjud emas. Shuningdek, **Feʼllar bobidagi** “**Sa harfi bobi**”, “**Jim harfi bobi**”, “**Xa harfi bobi**”, “**Dal harfi bobi**”, “**Zal harfi bobi**” kabilar va asarning soʻnggi bobi “**Qasam bobi**” tarkibiga kiruvchi, arabcha “**kaʼna**” feʼli boʻyicha qoida berilgan fasl ham Parij nusxasida mavjud emas.

Tadqiqotimiz davomida asarning Parij nusxasida ayrim sahifalar yoʻqolganligi aniqlangan edi. Har ikki nusxaning tarkibiy qismi qiyoslanganda maʼlum boʻldiki, ayrim fasllarning sarlavhasi kelgan sahifalar yoʻqolgan, biroq ular tarkibidagi aksariyat soʻzlar mavjud. Asarning Parij nusxasida **“Ichimliklarga oid soʻzlar fasli”**ning faqat sarlavhasi berilgan boʻlib, uning tarkibidagi soʻzlar yoʻqolgan sahifalar tarkibida boʻlishi mumkin. Ushbu fasl tarkibidagi soʻzlarni asarning Kastamonu nusxasidan topish mumkin.

**“Bulgʻatil mushtaq”** asarining ikkala nusxasidagi bob va fasllarni muqoyasa qilish jarayonida Parij nusxasida sarlavhasi mavjud boʻlmagan, biroq tarkibidagi aksariyat soʻzlar berilgan quyidagi bob va fasllar aniqlandi: **“Oziq-ovqat va masalliq-larga oid soʻzlar fasli”**, **“Qarindoshlarga oid fasl”**, **“Ba harfi bobi”**, **“Xo harfi bobi”**, **“Ro harfi bobi”**, **“Sod harfi bobi”**, **“To harfi bobi”**. Xususan, **“Oziq-ovqat va masalliq-larga oid soʻzlar fasli”**ning sarlavhasi berilmagan boʻlsa-da, unga oid quyidagi leksik birliklar Parij nusxasida uchraydi: *Söqum* – boʻlak, luqma; *Et* – goʻsht, et; *Söklençi* – qoʻrada pishgan goʻsht; *Söklanmiş et* – maydalangan goʻsht; *Barra* – qism, boʻlak, har narsaning bir parchasi; *Sönük* – suyak; *Sinir* – payli goʻsht; *Qoq et, sökrük, qurü et* – quritilgan goʻsht; *Oş* – ovqat; *Yançi* – xamir; *Bulğamaç* – boʻtqa; *Buzlamaç* – ugra shoʻrva; *Tutmoç* – qipchoqchada shunday ataladi; *Börek* – ichida goʻshtli qiyma solingan xamirli taom; *Şişbörek* – kabob, kotlet; *Çakar börek* – chak-chakka oʻxshash shirinlik; *Çarlama* – goʻshtli qiyma solingan qovurma somsa; *Quymaq* – qaymoqli yogʻli xamir va chuchvara nomi; *Qara etmek* – non talqon; *Qavut* – talqon, qipchoqchada; *Buğday oş* – bugʻdoy oshi; *Kavrak* – quritilgan non boʻlaklari; *Oziq* – oziq-ovqat; *Yaxna* – “yaqniy” soʻzidan arabchalashgan; qovurilgan goʻshtli taom; *Köpük* – koʻpik; *Suçıq* – goʻsht mahsuloti, hasip; *Süt* – sut; *Yağürt* – yogurt; *Ayran* – ayron; *Quyurtamaç* – tuya suti; *Avuz* – ogʻiz suti; *Qora qurut* – qora qurut, oʻta nordon qurut; *Paynır* – pishloq; *Yoş paynır* – yumshoq, yangi pishloq; *Tarxana* – ayron, tarxun; *Nar don* – anor donasi; *Bol* – asal; *Ç(ş)akar* – shakar; *Munut ç(ş)akar* – shakar oʻsimligi; *Qamiş* – shakarqamish; *Yoğ* – har qanday yogʻ; *Sayağ* – saryogʻ; *Yamurtuğa, yamarda* – tuxum; *Sarimsaq* – sarimsoq; *Soğan* – piyoz; *Bekmez(s)* – uzum shinnisi; *Quri uzum* – mayiz, quritilgan uzum; *Kaçi boynuzuv* – echki shoxi deb ataluvchi yongʻoq, karob daraxti va mevasi; *Ün* – un; *Kepak* – kepak; *Us, mum* – mum; *D(t)uz* – tuz; *Qurmo* – xurmo.

Parij nusxasida sarlavhasi berilmagan **“Qarindoshlarga oid fasl”** tarkibidagi quyidagi soʻzlar ushbu nusxada mavjud: *Ona* – ona; *Öğlon, öğül* – oʻgʻil bola, oʻgʻil farzand; *Qız* – qiz; *Qarindoş* – aka, uka; *Ota qarindoş* – amaki, otaning katta akasi; *Ota qız qarindoş* – amma, otaning singlisi yoki opasi; *Toya* – togʻa; *Ona qız qarindoş* – xola, ona tomondan qarindosh; *Xism* – qarindoshlik; *Xöşdoş* – oʻrtoq, doʻst; *Döst* – doʻst; *Biliş* – maʼrifat; *Öynaş* – oʻynash, maʼshuqa; *Sevtukum* – sevimli inson; *Duşman* – dushman; *Eş* – oshna yoki turmush oʻrtoq; *Yerdoş* – yurtdosh; *Ersak* – yengiltabiat ayol; *Qaynarta* – qaynota; *Qayinana* – qaynona; *Qaynim atasi* – qaynotam.

Asarning Parij nusxasi **“Feʼllar bobi”** qismida sarlavhasi yoʻq boʻlgan boblar mavjudligi tadqiqotimiz davomida feʼllarning oʻzagini topish orqali aniqlangan edi. Bunda ayrim boblar aslida qoʻlyozmada mavjud boʻlib, yoʻqolgan sahifalar tarkibida ularning sarlavhalari yoʻqolib ketganligi isbotlangan edi. Ayni paytda, asarning ikkinchi nusxasidagi mavjud sahifalarda aynan shu boblar keltirilganligi qoʻlyozmani kelgusida butun holga keltirish mumkinligini anglatadi. Xususan, **“Ba harfi bobi”**ning sarlavhasi berilmagan boʻlsa-da, mazkur bobga tegishli 15 ta feʼlning 152 ta shakli berilgan: *öpmaniz* 34b, *tukurdi* 34b, *yaşadi* 34b, *yutti* 35a, *sotti* 35a, *tukti* 35b, *taşildi* 35b, *öl etti* 35b, *öl ayladi* 35b, *tokardi* 35b, *soçti* 35b, *yatti* 36a, *uşudi* 36b, *qoldi* 36b. Shuningdek, qoʻlyozmaning mazkur nusxasida **Xo** (خ) harfiga oid soʻzlar berilgan, sarlavha

qo'yilmagan (43b–45a). Bu bobda 8 ta fe'lining 124 ta shakli kelgan. Ularning barchasi bugungi kunda tilimizda mavjud: *yirtgil* 43b, *çiqti* 43b, *tikti* 43b, *qopti* 44a, *savaş etti* 44a, *ziyon etti* 44b, *top etti* 44b, *muhurladi* 45a. Parij nusxasida \*\*\*"Ro harfi bobi"\*\*\*ning ham sarlavhasi uchramaydi, shu harf bilan boshlanuvchi 3 ta fe'lining 9 ta shakli kelgan: *Buyurdiniz*, *Buyurdilar*, *Buyurarlar*, *Buyurğil*, *Buyurmağil*, *Buyuriniz*, *Buyurmaniz*, *Yamaladi*, *Girovi qöydi* 45b. Qolaversa, "**Sod (ص) harfi**" bilan boshlanuvchi so'zlar berilib, sarlavha qo'yilmagan o'rinlar ham aniqlandi (53b–56a/5.3). Bunda 16 ta fe'lining 177 ta shakli kelgan: *aya qasğil* 53b, *kirçak etti* 53b, *kuydi* 53b, *yoyladi* 54a, *ayiğlandi* 54a, *ovladi* 53b, *kiyikladi* 53b, *urdi* 53b, *böyunladi* 55a, *kişnadi* 55b, *çağirdi* 55b, *körüşti* 55b, *böyadi* 56a, *oğdi* 56a, *çiqti* 56a, *yaradi* 56a. **To (ت) harfi** bilan boshlanuvchi so'zlar berilgan, sarlavha qo'yilmagan o'rinlarda (57b–60b/2.3) 15 ta fe'lining 189 ta shakli kelgan: *diladi* 57b, *sançti* 57b, *pişurdi* 58a, *bukti* 58a, *saçratti* 58b, *qamladi* 58b, *uzatti* 58b, *tegirtti* 58b, *ökutti* 58b, *balçiqładi* 59a, *kömdi* 59b, *tama' etti* 59b, *böşadi* 60a, *xoş öldi* 60a, *uçti* 60b. Mazkur tadqiqot ishi muallifi tomonidan ushbu boblarning sarlavhasi berilgan sahifalar yo'qolganligi aniqlanib, ayrim ilmiy nashrlarda batafsil dalillangan edi (G'aniyeva, 2025).

"**Bulg'atil mushtaq**" asarining Parij nusxasida uchrab, Kastamonu nusxasida mavjud bo'lmagan fasllar ham bor. Ular **Fe'llar bobi** tarkibidagi so'nggi beshta bob, ya'ni "**Lom harfi bobi**", "**Mim harfi bobi**", "**Nun harfi bobi**", "**Ha harfi bobi**", "**Vov harfi bobi**" kabilar bo'lib, Kastamonu nusxasida mavjud emas, biroq Parij nusxasida bor. **Fe'llar bobi** tarkibidagi asarning mazkur nusxasida berilmagan boblar esa xattot tomonidan ko'chirilmagan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas.

"**Bulg'atil mushtaq**" qo'lyozmasining har ikki nusxasida uchraydigan "**Birinchi bob (Ba:b ul-Avval)**" hamda uning "**Ikkinchi bobi (Ba:b us-Soniy)**" va undagi fasllar tarkibidagi so'zlar asosan ot so'z turkumiga oid bo'lib, ular atoqli va turdosh otlarni o'z ichiga oladi. Asarda berilgan atoqli otlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *Tämir qazuq* – Qovg'a burji, qutb yulduzi P8b/5.2; *Yetkan* – Katta Ayiq yulduz turkumi P8b/5.4; *Ülkar* – Hulkar yulduzi P9a/1.2 kabilar. Shuningdek, asar tarkibida kelgan otlarning katta qismini turdosh otlar tashkil qiladi: *osmon* P8b/4.2, *quyaş* – quyosh P8b/4.4, *oy* – oy P8b/4.5.

Asar tarkibida otlar tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma otlardan iborat. Shulardan qo'shma otlarning sifat+ot, ot+fe'l kabi shakllari ko'plab o'rinlarda kelgan. Xususan, makkajo'xori ma'nosidagi *Sari öt* so'zi sifat va ot birikmasidan iborat bo'lsa, *Jara kutti*, ya'ni "yomg'ir kutish jarayoni yoki marosimi" so'zi ot va fe'l birikmasidan jarayon oti hosil qilib kelgan. *Künçiq* – "kungaboqar" yoki "kunchiq gul nomi" so'zi ham ot va fe'l birikmasidan hosil bo'lib, keyinchalik qo'shma so'z sifatida yaxlitlangan. Asar tarkibida kelgan ko'plab qo'shma so'zlar shaklan bitishuvli, boshqaruvli yoki moslashuvli so'z birikmasi ko'rinishida uchraydi, biroq ular yaxlit holda qo'shma so'z sifatida tarjima qilinadi. Bunday so'zlarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *Munut ç(ş)akar* – shakar o'simligi; *Qora qurut* – qora qurut, o'ta nordon qurut; *Deva qush* – tuyaqush kabilar bitishuvli birikmadan hosil bo'lgan bo'lsa, *Buğday oş* – bug'doy oshi, taom nomi; *Nar don* – anor donasi kabilar moslashuvli yoki izofali birikma sifatida paydo bo'lgan va keyinchalik yaxlitlangan.

"**Bulg'atil mushtaq**" qo'lyozmasining Parij nusxasida sifatlar asarning ismlarga oid qismida aralash holda berilgan: *Sovuq* – sovuq, *Issi* – issiq kabilar. Kastamonu nusxasida sifatlariga oid alohida fasllar mavjud: "**Sifatlarga oid fasl**", "**Ranglarga oid fasl**".

Asar tarkibida ravishlarga oid alohida yirik bob va uning tarkibida bir nechta fasl berilgan. Payt ravishlari hamda o'rin-joy ravishlari ikki alohida faslda tartiblangan. "**Bulg'atil mushtaq**" tarkibida kelgan payt ravishlari quyidagilar: *bugun* – bugun, *erta* – ertaga, *tonda* – tongda, *başğa kun* – indinga, *boşğa kun*, *buni kun* – boshqa kun, ertangi kun kabilar, *tun* – kecha, *başğa kun* – avvalgi kun, *ayna* – juma, *şanba* – shanba, *yakşanba* – yakshanba, *duşanba* – dushanba, *seşanba* – seshanba, *çarşanba* – chorshanba, *panşanba* – payshanba, *hanuz*, *sönguda* – hanuz, keyin, *iyalaru* – oldin, ilgari, *oy* – oy, *kiran oy* – qamariy oyning boshlanishi, *çiqan oy* – oyning to'lishi, qamariy oy oxirlashi kabilar.

Qo‘lyozmada o‘rin-joy ravishlariga oid so‘zlar ham alohida fasl tarkibida tartiblangan: *yuğaru* – yuqorida, *aşağa* – pastda, *alinda* – oldida, *ortunça* – orqasida, *oltunda* – quyida, *söğda* – o‘ngda, *sölda* – chapda, *oranda* – senda bor, *oramda* – menda bor, *orasında* – unda bor, *orakızda* – sizlarning orangizda, *oramuzda* – bizning oramizda, *oralanda* – ularning orasida, *ora* – o‘rta, *anğürü* – uzoqdagi narsalarga ishora, anavi, *berü* – yaqindagi narsalarga ishora, mana bu, *qarşi* – qarshi, *qiranu* – qirg‘oq kabilar.

“**Bulg‘atil mushtaq**” asari tarkibida son so‘z turkumiga oid so‘zlar ham alohida fasl sifatida tartiblangan: *sağış* – sanoq, *bir* – bir, *ikki* – ikki, *uç* – uch, *tört* – to‘rt, *beş* – besh kabilar.

Asar tarkibida olmoshga oid ko‘plab so‘zlar berilgan bo‘lib, ular asosan nom qo‘yilmagan fasl tarkibida berilgan. Bular, asosan, so‘roq olmoshlari, ko‘rsatish olmoshlari hamda yordamchi so‘z turkumlariga oid birliklardir. Jumladan, *bu* – bu, *ül*, *tıgıda* – u, *munular* – mana bular, *onular* – ana ular, *sanga*, *sandan* – senga, *sendan*, *onga*, *ondan*, *onda* – unga, *undan*, *unda*, *bunun*, *buni* – buni, *banım*, *bani* – mening, meni, *anun* – uning, *manularnu* – mana bularni, *anularun* – ana ularning, *bulara*, *bunlarun* – bularga, bularning, *munlarun* – jumlani boshlash uchun kabi ko‘rsatish olmoshlari va ularning shaxslarda turlanishlari, *neçe* – nechchi, *neçuk* – qanday, *na* – nima, *naçun* – nima uchun, *qaçon* – qachon kabi so‘roq olmoshlari berilgan. Kishilik olmoshlari esa “**Olmoshga oid so‘zlar**” faslida tartiblangan.

### **Xulosa**

Qiyosiy tahlil jarayonida Parij nusxasida mavjud bo‘lmagan ayrim bob va fasllar Kastamonu nusxasida saqlanib qolganligi, ayrim qismlar esa faqat Parij nusxasida uchrashi aniqlandi. Har ikki nusxadagi materiallarni birgalikda tahlil qilish orqali qo‘lyozmaning struktur tuzilishi yanada to‘liqroq tiklandi. Natijada asarda jami 8 ta yirik bob va 62 ta fasl mavjudligi aniqlanib, uning ichki tuzilishi yaxlit holda tasavvur qilindi. Mazkur tadqiqot qo‘lyozmaning tarkibini yanada aniqroq belgilashga xizmat qiladi hamda asarning leksik va struktur xususiyatlarini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Olingan natijalar turkiy tillarning tarixiy leksikologiyasi, xususan, qipchoq turkchasi materiallarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Al-Türk G. Kitābu bulğatu’l-muštāq fi luğati’t-Turk wa’l-Qifçāk üzerine dil incelemesi: doktora tezi. – Ankara: Gazi Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2012.
2. Dadaboyev X., Xolmanova Z. Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015.
3. G‘aniyeva B. “Kitabu bulg‘atil mushtaq fi lug‘at at-turk val qifchaq” yozma obidasi: fe‘llar bobi // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2025. – № 2. – B. 481–485.
4. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.
5. Waldman C., Mason C. Encyclopedia of European peoples. – New York, 2006.
6. Zajączkowski A. Vocabulaire arabe-kiptchak de l’époque de l’état mamelouk: Bulğat al-muštāq fi luğat at-Turk wa-l-Qifžāq. II partie: le verbe. – Warszawa: Państwowe Wydawnictwo Naukowe, 1954.
7. Zajączkowski A. Vocabulaire arabe-kiptchak de l’époque de l’état mamelouk: Bulğat al-muštāq fi luğat at-Turk wa-l-Qifžāq. I partie: le nom. – Warszawa: Państwowe Wydawnictwo Naukowe, 1958.
8. Гайнутдинова Г. Р. Историко-лингвистический анализ турко-татарского письменного памятника XIV века Джамал ад-Дина ат-Турки “Китабу булгат аль-Муштак фи лугат ат-Турк ва-ль-Кифчак”: дис. ... канд. филол. наук. – Казань: Казанский государственный университет, 2005.
9. Файзуллаева Ш. Исследование языка памятника XIV в. “Китабу булг‘ат ал-муштак фи луг‘ат ат-Турк ва-ль-Кифчак” Джамал ад-Дина ат-Турки: дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент: Ташкентский государственный университет, 1969.